



Akmaldinov Yahyobek Xasanboy o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi

1-kurs talabasi

e-mail: AkmaldinovYahyobek@gmail.com

Ma'lumki, hozirgi kunda ijtimoiy hayot doirasida oilaviy sirlar oshkor etilishi bilan bog'liq holatlar juda ko'plab uchrab turibdi. Albatta ,oilaviy qolaversa shaxsiy hayotga daxldor bo'lgan sirlarning oshkor etilishi yoki omma oldida e'lon qilinishi har kimga ham yoqavermaydigan holat. Xo'sh , respublikamiz qonunchilik amaliyotida shu kabi holatlar qanday normativ asoslarga ko'ra tartibga solinadi , umuman olganda bu huquq davlatimiz tomonidan muhofaza qilinadimi?

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyasida har kimning shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish va o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi alohida mustahkamlab qo'yildi.²⁰ Ushbu huquqning konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi ham davlatimizning oilaviy ma'lumotlar sir tutilishiga bo'lgan e'tiborining yuksak darajada ekanligini anglatadi.

Keling, bu masalaga to'xtalishdan avval oilaviy sir nima ekanligiga oydinlik kiritsak. Oilaviy sir bu – oilaning a'zolariga (er-xotin, farzandlar va hkz) taalluqli bo'lgan , oila a'zolarining ijtimoiy , iqtisodiy , jismoniy , ruhiy va ma'naviy shaxsiyatiga bevosita daxldor , shuningdek ularning oshkor etilishi o'z egasining nafaqat shaxsiy balki oilaviy obro'si , sha'n va qadr-qimmatiga ham bevosita daxl qiluvchi ma'lumotlardir. Masalan, shaxsning sudlanganligi , ruhiy sog'lomlik holati, jismoniy sog'lig'iga oid bo'lgan biometrik va genetik ma'lumotlar.

Shaxsning salomatligi bilan bog'liq biometrik ma'lumotlari - shaxsning anatomik va fiziologik o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi axborotlardir.²¹ O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish , ijro ishini yuritish bilan bog'liq bo'lgan va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari ushbu ma'lumotlar shaxsning rozilgisiz oshkor etilishi mumkin emas.

Aytaylik sizning oila a'zolaringizdn biri ruhiy holatning buzilishi yoki ruhiy kasallik tufayli Sog'liqni saqlash vazirligida ruhiy kasalliklar bo'yicha despanserda ro'yhatda turadi. Kutilmaganda siz bu haqda o'zingizni o'qish yoki ish joyingizda sizga nisbatan xurmatsizlik qilish va sizni obro'sizlantirish maqsadida ushbu ma'lumotlar oshkor qilinayotganidan xabar topdingiz. Bunday hollarda darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlar (ichki ishlar, sud)ga ariza bilan murojaat qilishingiz lozim.

Hozirgi kunda amaliyotga bog'liq holatda tahlil qilsak, oilaviy sirlar oshkor etilishi bilan bog'liq bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlarning asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etiladi. Ya'ni, fuqarolar tomonidan mamlakatimiz konstitutsiyasining 33-moddasida mustahkamlangan har kimning istalgan axborotdan erkin foydalanish, uni izlash olish va

²⁰ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 33-modda

²¹ Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun 26-modda

tarqatishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqidan e'tiborsizlik va beparvolik bilan foydalanilishi ushbu turdagi noqonuniy harakatlarni sodir etilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, telegram, instagram, facebook kabi messengerlariga fuqrolar tomonidan ixtiyoriy ravishda joylanayotgan oilaviy suratlar va turli xil videolar oilaviy sirlar oshkor etilishi bilan bog'liq holatlar ko'lamini kengaytiriyapti.

Bu turdagi munosabatlarning huquqiy muhofazasiga to'xtalsak. Shaxsiy yoki oilaviy sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarni shaxsning roziligisiz va qonunga xilof ravishda yig'ish va tarqatish (oshkor qilish) O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-moddasiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, agar oilaviy sirlar oshkor etilishi bilan bog'liq noqonuniy harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 141- moddasiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Oilaviy sirlarning davlatimiz tomonidan muhofaza qilinishi ko'plab normativ huquqiy hujjatlar orqali ta'minlanganligiga qaramasdan, quyidagi tavsiyalarga amal qilish oilaviy sirlarga bo'lgan huquqni himoya qilishning eng samarali vositasidir:

1.Shaxsiy va oilaviy ma'lumotlaringizga daxldor bo'lgan hujjatlar, tasvirlar (video,foto), turli ma'lumotnomalarni ijtimoiy tarmoqlarga joylamang.

2.Sizdan oilaviy sirlaringiz turkumiga kiritilgan ma'lumotlarni berishingizni so'rayotgan har bir fuqaro, mansabdor shaxs va davlat organlaridan ularga ushbu ma'lumotlarni olish huquqni beruvchi vakolati tog'risida ma'lumot talab qiling.

3.Shaxsiy ma'lumotlaringizdan nusxalar va ko'chirmalar olinayotganida har qanday joyda zarur bo'lgan miqdornigina nusxalanishi va ko'paytirilishiga e'tiborli bo'ling.

4.Oilaviy siringiz oshkor bo'ldi deb hisoblasangiz darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qiling.

Har qanday holatda ham e'tiborli bo'ling. Bunday huquqbuzarliklar sodir etilishiga asosiy sabablardan biri bu aynan fuqarolarning e'tiborsizligidir. Zero xalqimiz ta'biri bilan aytganda : "O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma".